



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 26-aprel

125-10-0-F/25

Toshkent viloyati hokimiligi

Tuman (shahar) hokimlari hamda viloyat hokimligi tizimidagi boshqa korxona (tashkilot) rahbarlarini mukofotlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 12, 14 va 23-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 12-apreldagi “Davlat hokimiyati va boshqa organlari, sud va notarial idoralar xodimlari mehnatga haq to‘lashning tarif setkasini joriy etish to‘g‘risida”gi 147-son qarori 4-bandi hamda Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-030-10-0-K/24-sonli qaroriga asosan, viloyat hokimligi Tashkiliy-kadrlar guruhi rahbari A.Akramov bildirgisini inobatga olib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asosan,

1. Tuman (shahar) hokimlari hamda viloyat hokimligi tizimidagi boshqa korxona (tashkilot) rahbarlarining ish samaradorligini oshirish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida 2025-yil uchun nazarda tutilgan xarajatlar smetasi doirasida haqiqatda ishlagan davri uchun 2025-yilning har chorak yakuni bo‘yicha bir oylik ish haqining 50 (ellik) foizi miqdorida mukofotlansin.

2. Viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (Sh.Xashimov) mablag‘ ajratish bo‘yicha “Davlat moliyasini boshqarish axborot tizimi”da tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

3. Tuman (shahar) hokimliklari, viloyat hokimligi tizimidagi tegishli korxona (tashkilot)lar mazkur farmoyishga asosan zarur hujjatlarni rasmiylashtirish va to‘lovlarni amalga oshirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur farmoyishning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari O.Tursunov zimmasiga yuklansin.

**Toshkent viloyati
hokimi**



Z.Mirzayev